

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 376 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumaye va	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматовна Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики.....	243
Ахмедова (Жабборовна) Нилуфар Икболжон кизи	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati.....	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari	312
Olimova Nodira Xamrakulovna	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish.....	324
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
Махкамова Надира Саидмуратовна	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili	340
Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modelashtirish.....	345
Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari.....	351
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
Amonova Dilafro'z O'tkurovna	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish	362
Axmedov Miraziz Alisherovich	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari	367
Hamrokulov M. O.	



TIJORAT BANKLARI KAPITALINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING TARKIBI



Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li

PhD, Namangan muhandislik-qurilish instituti
Menejment kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda bank kapitali va resurslarining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Tijorat banklari kapitali va uni tarkibi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari va nazariy-uslubiy asoslari o'rganilgan. Tijorat banklari kapitalini baholashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: bank, kapital, bank kapitali, resurs, resurs bazasi, samaradorlik, moliyaviy faoliyat.

Abstract: This article describes the importance and specific features of bank capital and resources in the development of commercial banks. Research works and theoretical-methodical foundations of foreign and domestic scientists on the capital of commercial banks and its structure have been studied. Peculiarities of capital assessment of commercial banks are studied.

Key words: bank, capital, bank capital, resource, resource base, efficiency, financial activity.

Аннотация: В данной статье описаны значение и особенности банковского капитала и ресурсов в развитии коммерческих банков. Изучены научные работы и теоретико-методические основы зарубежных и отечественных ученых по капиталу коммерческих банков и его структуре. Изучены особенности оценки капитала коммерческих банков.

Ключевые слова: банк, капитал, банковский капитал, ресурс, ресурсная база, эффективность, финансовая деятельность.

KIRISH

Iqtisodiyot nazariyasidan ma'lumki, har qanday iqtisodiy tizimni tashkil etish uchun yer, kapital, tabiiy resurslar, inson kapitali va tadbirkorlik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday iqtisodiy munosabatlarni va tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish uchun kapital bilan ta'minlash kerak bo'ladi. Asosiy to'lov vositasi sifatida pul vositasining paydo bo'lishi, uning harakatini va taqsimlanishini samarali tashkil etish kerakligini ko'rsatdi. Natijada, banklar paydo bo'la boshladi hamda iqtisodiy tizimning ajralmas bo'lagi bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiy tizimning mustaqilligini va milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish lozim. Bunda davlatlar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning rivojlanish darajasi, kapitallashuv darajasi turlicha ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, turli iqtisodiy inqirozlar, iqtisodiyot va bank tizimiga ta'sir etuvchi risklarning ko'payishi har bir iqtisodiy faoliyatni ilmiy tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish va ularni to'g'ri taqsimlashni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muallif tomonidan bank resurslari, ularni tashkil etish, tijorat banklari tomonidan resurslarni boshqarish bo'yicha quyidagi xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi: N.I.Valenseva, E.N.Vasilishen, Ye.F.Jukov, G.A.Kozlov, V.I.Kolesnikov, O.I.Lavrushin, N.I.Kulikov, E.Gill, E.Dj.Dolan, R.Kotter, D.Polfreman, J.Rivuar, E.Rid, Dj.F.Sinki, R.Smit, F.Ford, Yo.Abdullayev, A.A.Omonov, T.Qoraliyev, N.G.Karimov, Sh.Z.Abdulayeva, U.Azizov va boshqalar.



Bank faoliyatini samarali tashkil etish uchun bankka resurslarni maksimal darajada jalb etish va undan to'g'ri foydalanishni ta'minlash zarur. Banklar o'z resurslaridan tijorat va xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanishadi. Bank resurslarini samarali tashkil etish masalalari bank faoliyatini bir maromda va ishonchli olib borish uchun birinchi darajali maqsaddir. Tijorat banklari resurs bazasining miqdori va resurs manbalarining tarkibiga qarab bankning ishonchiligi, mijozlarni jalb qilish jozibadorligini, "xavfsizlik yostiqligini" mavjudligini bilish mumkin. Tijorat banklarining resurs bazasi tarkibini tushunish uchun resursning o'ziga va bank resurslarining o'rganilishi tarixini tahlil qilish lozim.

Resurs – fransuzcha "ressource" so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi ^[1].

Iqtisodiyot adabiyotlarda resurslar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- tabiiy resurslar;
- moliyaviy resurslar;
- inson resurslari;
- yer resursi;
- va boshqa resurslar.

D.Polfreman, F.Fordlarning fikricha, bank resurslarini bank passivlari sifatida qabul qilishgan hamda ular bank aksionerlarining mablag'lari va jamg'armachilarning mablag'laridan tashkil topgan deyishgan ^[2].

Iqtisodchi olim Piter S.Rouz tijorat banklari resurslarini strategik boshqarish passivlar va fondlarni boshqarish strategiyalariga asoslanib, alohida olingan holda yoritib bergan.

Uning fikricha, banklar ikkita aniq qo'yilgan maqsadga muvofiq, mablag'lar manbalarini restrukturizatsiya qiladilar:

1. Mablag'larni jalb qilish xarajatlarini minimallashtiradigan manbalardan foydalanish. Bu bankning foydasi va kapitalini oshirish uchun uning ixtiyorida yangi mablag'larning ko'p qolishiga imkon beradi.
2. Bank yuqori daromadli aktivlarni o'zida saqlashga imkon topa olishi uchun fondlar barqarorligining istalgan darajasini ta'minlovchi depozitlar, qarz mablag'lari va kapital miqdorlari o'rtasidagi optimal nisbatni tanlash ^[3].

Rossiyalik iqtisodchi olim O.I.Lavrushin rahbarligidagi olimlar bank resurslariga quyidagicha ta'rif berishgan: "tijorat banklarining resurslari, yohud bank resurslari bu – banklarning ixtiyorida bo'lgan hamda ularning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan mablag'lar yig'indisidir ^[4]".

N.I.Kulikov, N.P.Nazarchuklarning fikricha: "tijorat banklarining resurslari bu – ularning kapitali hamda fondlari, shuningdek passiv operatsiyalari natijasida jalb qilingan va aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan mablag'laridir ^[5]".

Professor T.Karaliyev boshchiligidagi U.Azizov, T.Bobakulov, Sh.Abdullayeva, Z.Xolmaxmadov, O.Ortiqov, D.Saidov va b. kabi mualliflar jamoasi bank resurslariga quyidagicha ta'rif berishgan: "bank resurslari bu – bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, bankning o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan, bankning daromad olishga asos bo'luvchi zahira va imkoniyatlarining yig'indisidir ^[6]".

Resurs nazariyalari va bank resurslari to'g'risida, O'zbekistonlik tadqiqotchi I.X.Raxmanovning ilmiy izlanishlari e'tiborga molik bo'lib, u quyidagi fikrlarni muxokama qilgan: "Tijorat banklari resurs bazasi nazariyasi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida banklarning vakolatlari doirasida barqaror resurslarni jalb qilish va ularni samarali joylashtirishni ko'zda tutuvchi strategik yondashuv bo'lib hisoblanadi. Umuman olganda, iqtisodiy nazariya nuqtai-nazaridan tijorat banklari resurs nazariyasi iqtisodiyotda bank resurslariga bo'lgan ehtiyojning cheksizligi va cheklangan resurslar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni hal etishga qaratilishi kerak ^[7]".

Shuni aytilishimiz mumkinki, bank resurslari bank faoliyatini tashkil etish uchun jalb qilingan dastlabki ustav kapitali ko'rinishidagi, keyinchalik bank passiv operatsiyalari orqali jalb qilinadigan mablag'lar bo'lib, bankning likvidligi, ishonchligining ko'rsatkichi bo'lib, tijorat bankining samarali faoliyat ko'rsatishi bank resurslarining hajmiga bog'liq bo'ladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida taqqoslama tahlil, guruhlash, qiyoslash, abstrakt mantiqiy fikrlash va baholash kabi usullardan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda bank resurslari va bank kapitaliga berilgan turlicha ta'riflarni uchratishimiz mumkin. Mavzuga tegishli ilmiy adabiyotlar tahlil qilinganda, bank resurslari bank kapitalidan, jalb qilingan mablag'lardan va qarzga olingan mablag'lardan tashkil topadi.



1-rasm: Bank resurslari tarkibi

Bank kapitalining samaradorligini va uni ko'paytirish yo'llarini tahlil qilishdan avval, kapital va bank kapitali, uning funksiyalari, tarkibini tahlil qilish lozim. Kapital – bu foyda olish hamda qo'shimcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan moddiy, intellektual va moliyaviy resurslarning birlashmasidir[8].

Ilmiy adabiyotlarda kapital haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Aristotelga tegishli ekanligi qayd etiladi. Keyinchalik klassik iqtisodchilardan A.Smit va D.Rikkardo kapitalni mehnat va zahiralarni orqali yaratilishini qayd etishgan. A.Smitning fikricha, "kapital bu – kapital egasi foyda olishni kutadigan, ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan zahiralardir [9]".

Kapital to'g'risida K.Marks o'zining "Kapital" asarida kapitalning hosil bo'lishi, tarkibi haqida dastlabki falsafiy va iqtisodiy bilimlarni asoslab berdi. Karl Marks kapitalning moddiy tuzulishini hisobga olib, uning mehnat qurollari, hom-ashyo, yashash vositalari, moddiy mahsulotlar, ma'lum miqdordagi tovarlar, ayirboshlash qiymatlaridan iboratligini ta'kidlagan [10].

Amerikalik atoqli iqtisodchi olim, Amerikka marjinalizm maktabi asoschisi, Djon Beyts Klarkning fikricha, "kapital – bu doimiy harakatda bo'lgan, ya'ni doim "muomalada" bo'ladigan zahiralardir [11]".

Shved olimi Knut Viksell (1851–1926) – foiz, kapital va pul nazariyalarini matematik modellar orqali tahlil qilish bo'yicha samarali ilmiy faoliyat olib borgan. Uning asosiy asarlari: "Qiymat, kapital va renta" (1893), "Foiz va narxlar" (1898).

Amerikalik iqtisodchi olim Irvin Fisher (1867–1947) kapital, foiz va pul nazariyalarini mukammallashtirgan olim hisoblanadi. Ayniqsa, uning "Foiz nazariyasi" (1930) kitobi kapital, pul va foiz nazariyalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Uning fikricha, kapital barcha tabiiy va qiymatga ega boyliklar zahirasidir, u o'z ichiga ishlab chiqarishda foydalaniladigan pul, asbob-uskunalar, infrastruktura, yer, inson mehnati kabilarni o'z ichiga oladi [12].

Rossiyalik iqtisodchi G.V.Savitskayaning fikricha, "kapital – bu xo'jalik yurituvchi subyekt foyda olish maqsadida, o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun foydalanadigan vositalar" [13].



Rossiyalik yana bir iqtisodchi V.V.Kovalevning fikricha, “kapital – bu pul mablag‘laridir. Subyektning jami pul mablag‘lari yig‘indisidir ^[14]”.

Rossiyalik atoqli iqtisodchi olim O.I.Lavrushinning fikricha, bank kapitali bankning o‘z shaxsiy kapitaliga ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga kreditorlar va omonotchilarning ishonchini qozonish va faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil qilingan fondlar yig‘indisini qamrab oladi. Muallifning fikricha, bankning o‘z kapitali ta‘sischilarning ustav kapitalini shakllantirishdagi ulushlaridan iborat ^[15].

Ukrainalik iqtisodchi olimlarning fikricha, “Bank kapitali – bu bank tomonidan jalb qilingan, ular tomonidan kredit, hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun bank resurslari shaklida foydalaniladigan kapitalar to‘plamidir. Bankning o‘z kapitali (ustav kapitali va rezerv kapitali) bank kapitalining eng kichik qismidir. Tijorat yoki sanoat kapitalidan farqli o‘laroq, bankning o‘z kapitali bank faoliyatida foydalaniladi va bank foydasini keltiradi ^[16]”.

Amerikalik iqtisodchilar Kris D.J. Barltron va D.MakNotonlarning fikricha, bank kapitali bank faoliyatida yuzaga keladigan turli xil ko‘zda tutilmagan holatlarning oldini olish uchun yetarli rezerv bo‘lishi bilan birga, o‘zgaruvchan sharoitga moslashishda yuzaga keladigan to‘lovlarga qobiliyatsizlikni bartaraf qilishda yordam beradi ^[17].

T.M.Karaliyev, O.B.Sattarov, I.F.Sayfiddinovlarning fikricha, tijorat banki kapitali – bu bank faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai bo‘lib, bankning operatsion jarayonidan kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o‘ziga xos himoya vositasidir ^[18].

Yo.Abdullayev, T.Karaliyev, Sh.Toshmurodov, S.Abdullayevalarning hammuallifligida yozilgan ilmiy adabiyotda quyidagi ta‘rif berilgan: “bank kapitali – deganda bankning barqaror faoliyatini ta‘minlash va favqulodda sodir bo‘ladigan zararlarni qoplash maqsadida maxsus tashkil qilinadigan fondlar va zaxiralar tushuniladi ^[19]”.

“Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Nizomda bank kapitaliga yoki bankning o‘z kapitaliga ta‘rif berilmagan bo‘lsada, kapital zahiralar tushunchasi keltirilgan. “Kapital zahiralar – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng sof foyda yoki avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan zaxiralar. Ulardan bank faoliyatida vujudga keladigan har qanday zararlarni ular yuzaga kelishi bilan oq hech qanday cheklashlarsiz qoplash uchun foydalanilishi mumkin ^[20]”.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kapitalning ahamiyati boshqa iqtisodiy resurslarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, kapitalni to‘g‘ri taqsimlash orqali iqtisodiy farovonlikka erishish barcha davrlarda muhim bo‘lgan. Kapitalning to‘g‘ri taqsimlanishi va iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoqlari va sohalarini pul mablag‘lari bilan ta‘minlashda banklarning o‘rni beqiyosdir. Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Bugungi kunda tijorat banklari resurslari va kapitali tushunchalarining aniq belgilanishidagi chalkashliklardan kelib chiqib, tijorat banklari resurslariga quyidagicha ta‘rif berildi, ya‘ni tijorat banklari resurslari bu – banklarning ixtiyoridagi tasarruf etish huquqi mavjud bo‘lgan, ustav kapitali va bankning passiv operatsiyalari natijasida hosil bo‘ladigan mablag‘lar va boshqa qimmatli qog‘ozlar majmuasidir.

Shuningdek, kapital to‘g‘risida mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy ishlari hamda xulosalari o‘rganildi, tahlil qilindi, natijada kapital tushunchasiga quyidagi mualliflik ta‘rifi berildi. Kapital – o‘z egasiga foyda keltirish hususiyatiga ega bo‘lgan, qo‘shimcha qiymat yaratish va ishlab chiqarish, shuningdek moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan vositalardir. Bu vositalar mablag‘, asbob-uskunalar, yer, nomoddiy aktivlar va qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, bank kapitali bo‘yicha berilgan ilmiy xulosalardagi mavjud kamchiliklarni hisobga olgan holda quyidagi mualliflik ta‘rifi berildi: bank kapitali – banklar tomonidan tijorat va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan, bank balansining passividagi xususiy kapitalidir. Bank kapitali omonotchilar, kreditorlar va ta‘sischilarning bank faoliyatidan foyda olish maqsadida qilayotgan tavakkalchiliklarining kafolati bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азрилиян А.Н., Большой экономический словарь: 25000 терминов / [авт. и сост.: А.Н. Азрилиян и др.]; под ред. А.Н. Азрилияна. – Изд. 6-е, доп. – М.: Институт новой экономики, 2004 (ОАО Можайский полигр. комб.). – 1376 с.
2. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. Перевод с англ. М.: Инфра 1996., с. 102.
3. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. со 2-го изд. – М.: Дело, 1997. – С. 478-479.
4. Банковское дело. Экспресс-курс: учебное пособие / кол. авторов; под ред. О.И. Лаврушина. — 3-с изд., перераб. и доп. — М.: КНОРУС, 2009. с.82.
5. Банковские ресурсы, их формирование и эффективное использование: монография / Н. И. Куликов, Н. П. Назарчук. – Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО “ТГТУ”, 2014. – с. 5.
6. Bank ishi. T.Karaliyev, U.Azizov, T.Bobakulov va b. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016-yil, 100-b.



7. "Xalqaro moлия va ҳисоб" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2018 йил, <http://interfinance.uz/en/bolimler/201-bank>
8. https://economic-definition.com/Economic_and_legal_terminology/Kapital_Capital__eto.html
9. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов/ Адам Смит, переводчик Ключин П. Н. – М.: Эксмо, 2016 г, 1056 с.
10. Маркс К. Капитал. Т.3 / К.Маркс – М.: Политиздат, 1970. – с. 105
11. Кларк Дж.Б. (Джон Бейтс). Распределение богатства The Distribution of Wealth. (In Russian) 1992. 448 с
12. Fisher Irving, The Theory of Interest, 1930. p. 12
13. Савицкая Г.В., Экономический анализ / Г.В. Савицкая. – М.:Новое знание, 2003. – с. 20
14. Ковалев В.В. Финансовый анализ: Управление капиталом. Выбор инвестиций. Анализ отчетности/ В.В.Ковалев. – М.:Финансы и статистика, 1997. – с. 14
15. Лаврушин О.И. Банковское дело /под ред. О.И.Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2001. – с. 109
16. С.И.Лукаш, А.А.Малютина "Банковская энциклопедия" Днепропетровск, 1994, с. 24
17. Крис Д.Ж.Барлтон и Д.МакНотон "Банковские учреждения в развивающихся странах" II том. Всемирный Банк Вашингтон, ДС. 1992. с. 101
18. Tijorat banklari faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma. Karaliyev T.M. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent Moliya instituti. "Iqtisod-Moliya", 2013-y. – 48 b.
19. Abdullayev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009-yil, 118-bet.
20. "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi" Nizom AV 2693-6 son, 06.07.2015-yil.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.